



ISSUES OF CREATING AN ENVIRONMENT OF SOCIAL COHESION IN ENSURING SOCIAL SECURITY IN THE CONTEXT OF GEOPOLITICAL STRUGGLES

Numon-zoda Akmaliddin

*Independent researcher of Fergana State University
Fergana, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: geopolitics, geopolitical struggles, legalities, comparative analysis, strategic importance, philosophical nature, personal security and privacy, theoretical-methodological basis, social security.

Received: 19.03.26

Accepted: 20.03.26

Published: 21.03.26

Abstract: In the article, the theoretical and methodological bases of researching the problems of ensuring social security in the context of geopolitical struggles within the framework of social philosophy, the socio-philosophical analysis of ensuring social security in the context of geopolitical struggles, and the future tasks of ensuring social security in the context of geopolitical struggles are studied. Also, the socio-philosophical aspects of the concepts of geopolitics and geopolitical struggle are analyzed.

GEOSIYOSIY KURASHLAR SHAROITIDA IJTIMOY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA IJTIMOY HAMJIHATLIK MUHITINI YARATISH MASALALARI

No'mon-zoda Akmaliddin

*Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Farg'ona, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: geosiyosat, geosiyosiy kurashlar, qonuniyatlar, qiyosiy tahlil, strategik ahamiyat, falsafiy xususiyat, shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlik, nazariy-metodologik asos, ijtimoiy xavfsizlik.

Annotatsiya: Maqolada geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarini ijtimoiy falsafa doirasida tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy tahlili, geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning istiqboldagi vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda ijtimoiy

hamjihatlik muhitini yaratish masalalari tahlil qilingan.

ПРОБЛЕМЫ СОЗДАНИЯ СРЕДЫ СОЦИАЛЬНОЙ СПЛОЧЕННОСТИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЕОПОЛИТИЧЕСКОЙ БОРЬБЫ

Номонзода Акмалиддин

Независимый исследователь

Ферганского государственного университета

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: геополитика, геополитическая борьба, законность, сравнительный анализ, стратегическое значение, философская природа, личная безопасность и неприкосновенность частной жизни, теоретико-методологические основы, социальная безопасность.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретико-методологические основы исследования проблем обеспечения социальной безопасности в контексте геополитической борьбы в рамках социальной философии, социально-философский анализ обеспечения социальной безопасности в контексте геополитической борьбы, а также перспективные задачи обеспечения социальной безопасности в условиях геополитической борьбы. Также анализируются социально-философские аспекты концепций геополитики и геополитической борьбы.

Kirish. Hozirgi davrda shakllanayotgan yangi ijtimoiy reallikka muvofiq yangi g'oyalar, tamoyillar, nazariyalar yaratilmoqda. Chunki eski g'oyalar, yondashuvlar tobora tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy jarayonlarning markazidamiz. Lug'atlar, iboralar, ijtimoiy mulqotlar yangicha ideologiya, tamoyillar bilan boyib bormoqda. Bularning hammasi ijtimoiy hayotimizda sodir bo'lgan o'zgarishlarni aks ettiradi. Jamiyatda maqsadlar mushtarakligi ijtimoiy hamkorlikni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy hamkorlik jamiyat barqarorligining asosi hisoblanadi. "Ijtimoiy hamkorlik g'oyasini amalga oshirish yo'lida g'ov bo'ladigan eng xatarli to'siqlar aqidaparastlik, terrorism, ekstremizm, ayirmachilik, mahalliychilik, tajavuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Mafkuraviy kurashlar kuchayib borayotgan bugungi kunda fuqarolarimiz o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi". Shu bois, jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida insonlarni

ijtimoiy hamkorlikka undovchi birlashtiruvchi g'oyaga, hampjihatlikka undovchi ideologik kuchga ehtiyoj ortib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Shaxs, davlat va jamiyat xavfsizligini ta'minlash muammolari barcha zamonlarda barcha mamlakatlarda turli rakurslarda, turli munosabatlar bilan keng tadqiq qilib kelingan masalalar turkumiga kiradi. Shu sababdan mutafakkirlarning ko'plab asarlarida mavzuga doir ahamiyatli fikrlarbayon etiladi. Masalan, Platon xavfsizlikni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini uyg'unlashtirish orqali ta'minlash mumkin, deb ta'kidlaydi. Muammo yuzasidan qimmatli fikrlarni Konfutsiy, Aristotel, N.Makiavelli, T.Gobbs, J.J.Russo, N.Berdyayev va boshqalarning asarlarida ham uchratish mumkin. O.Voznesenskaya, V.Karpov, D.Pavlov, N.Kryuchek, M.Kuznetsov, YE.Lukasheva, F.Lyushev, S.Maxov, D.Samoylovlarning asarlarida shaxs xavfsizligining asosiy xususiyatlari, uni ta'minlash uslublari va vositalari xususida fikr yuritiladi. V.Averchenkov, V.Yeroxin, O.Golembiovskayaning asarlarida davlat xavfsizligini ta'minlash tizimining rivojlanishi tarixi o'rganilgan.

Natijalar va muhokama. Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida oliy maqsadga erishish uchun milliy birdamlikni shakllantirish lozim. Maqsad harakatga muvofiq bo'lishi uchun shart-sharoitlar qanday bo'lishi kerak? Bunday shart-sharoit – maqsadga maksimal darajada erishish va g'oyaning amalga oshirilishidir. Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida g'oyaviy birdamlik o'ziga xos milliy mafkuradir, u muayyan mulohaza, qoida, fikrlarda ifodalanadi. Unga erishish ilmiy, texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy determinantalar majmui sifatidagi ob'ektiv shart-sharoitlarga hamda sub'ektiv omillar, jamiyatda ijtimoiy adolatning ta'minlanishi, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolarning ijtimoiy faolligi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy tamoyil va huquqiy normalarga bog'liqdir. Maqsadga turli vosita, usullar yordamida erishiladi. Maqsadga erishish vositalari ham moddiy, ham ma'naviy bo'lishi mumkin. Maqsad aloqalari tizimi harakatlar dasturida aks etadi. Maqsad va unga erishish vositasining o'zaro ta'siri ularning umumiy tomonlari mavjudligi bilan bog'liq. O'zaro ta'sir umumiy tomonlar orqali amalga oshiriladi, buning natijasida o'zaro ta'sir etuvchi tizimlar o'zgaradi.

Shuningdek, demokratik davlat qurish jarayoni insonlar faoliyatining serqirraligini, turli-tumanligini taqozo etadi. Ushbu jarayonda faoliyat va fikr, manfaatlar, ehtiyojlar, qadriyatlarni tanlash plyuralizmi, ya'ni ko'pligi bilan belgilanadi. Ular ba'zida bir-birlariga qarama-qarshi bo'lgan qarashlar, faoliyatlarda namoyon bo'ladi. Lekin bular ijtimoiy tangliksiz, tinch, osoyishta yo'l bilan hal qilinmog'i lozim. Buning uchun jamiyatda barqarorlik mavjud bo'lishi kerak. Ijtimoiy barqarorlik va mamlakatning olg'a qarab rivojlanishi jamiyatni har tomonlama isloh qilish

jarayonining fundamental tayanchidir. Demak, barqarorlik turli xil qarashlar birligining sharti va ichki hamda tashqi muvozanatni saqlash vositasi hamdir.

Yangi O‘zbekistonni o‘z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo‘nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir. Bizning oldimizda aholi bandligini ta‘minlash va ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan zarur choralarni kurish kabi muhim vazifa turibdi. Ijtimoiy sohada bizni qiynaydigan bir qancha savollar bor, jumladan: mamlakatimizda barcha ishsizlar ish bilan ta‘minlanayaptimi? Buning uchun yana nimalar qilish kerak? Xorijga ish qidirib ketganlarning qaysi muammolari hal etilmagan? Biz bir narsani to‘g‘ri tushunishimiz kerak: bitta ishsiz odam - o‘nta muammo degani. Bu muammolar ishsiz odamning o‘ziga, oilasi va mahallasiga, jamiyatga keltiradigan zararini hisoblasak, masalaning naqadar jiddiy ekani yanada oydinlashadi. Jamiyat yangi taraqqiyot bosqichida milliy yuksalishtabiiylik jamiyat a‘zolarini ayniqsa ongi, tafakkuri hali to‘la shakllanib ulgurmagan yoshlarning hayotida bir muncha qiyinchilik bilan amalga oshadi. Chunki, yoshlar ijtimoiy-siyosiy ongini o‘stirish va yangicha dunyoqarashini shakllantirish masalalari ma‘naviy yetuklikka asoslangan hamkorlik, hamjihatlik, xamfikirlik omillari turli inqirozli holatlar, to‘qnashuvlarning oldini olish jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu esa taraqqiyotning tadrijiyligiga olib keladi.

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy xavfsizlik, barcha sog‘lom fikrlovchi fuqarolar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning ijtimoiy g‘oyaviy mushtarakligiga asoslanadi. Bu borada O‘zbekistonning eng asosiy yutig‘i “ko‘p millatli xalqimizning vujudga kelayotgan qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligi yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealarga beparvo bo‘lmasdan, aksincha, daxldorlik tuyg‘usi bilan yashayotganidir”. Demak, ijtimoiy mushtaraklik jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar va ayrim jamiyat a‘zolari uchun ma‘qul bo‘lib, o‘z maqsadlarini, orzu-niyatlarini amalga oshirishda teng imkoniyatlar va sharoitlarga ega bo‘lishlarining majmuasidir. Ijtimoiy mushtaraklik, murosa ma‘lum bir qadriyatlar tizimiga asoslangan bo‘ladiki, bu qadriyatlar jamiyatning aksariyat qismi uchun maqbul bo‘ladi. Tinchlik, totuvlik, xavfsizlik, barqarorlik, ijtimoiy adolat kabi qadriyatlar shular jumlasidandir. Tinch, farovon yashab, ijtimoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun fuqaroviy, millatlararo totuvlik, barqarorlik bilan birga ijtimoiy adolat, tolerantlik hamda g‘oyaviy birdamlik munosabatlari mavjud bo‘lishi kerak. Plyuralizmga ustunlik qilgan demokratik davlat, fuqaroviy jamiyatda ijtimoiy mushtaraklikni, fuqarolarni o‘z maqsadlariga erishishda imkoniyat va shartlar tengligi haqidagi ijtimoiy kelishuv deb ham atash mumkin. Bunga misol qilib bir qator tamoyillarni keltirish mumkin, ularni amalga oshirish esa ijtimoiy mushtaraklikning asosi deb

qaraladi. Bular barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, erkin tanlash huquqi, o'z irodasini erkin ifodalash huquqi insonlarning o'z manfaatlarini himoya qilishi va amalga oshirishi hamda boshqa shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlovchi, mulkdorlar sinfi huquq va mavqeini himoya qiluvchi ijtimoiy adolatni ta'minlovchi tamoyillardir. Ushbu tamoyillarga rioya qilish esa jamiyatda qabul qilingan Konstitutsiya normalari va qonunlarga mos keladigan ijtimoiy mushtaraklik, barqarorlik, xavfsizlik va taraqqiyot kafolatlari deb qarashga imkon beradi. Zero, "bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillarining tinch-totuv hayot kechirayotgani... Millatlararo totuvlikni ta'minlashda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 138 ta milliy madaniy markazning o'rni behiyos. Aynan shu nuqtai nazardan kelgusida ham millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib holadi". Buning uchun esa, "jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, jamoaviy murojaatlar asosida hududiy, tarmoq va davlat dasturlari ijro sifatini tekshirish amaliyotini joriy etish, ayrim davlat funksiyalarini amalga oshirish jarayoniga jamoatchilik nazorati sub'ektlarini keng jalb qilish, davlat organlari faoliyatini o'rganishda ijtimoiy so'rovlar o'tkazish hamda aniqlangan kamchiliklarni ochiq muhokama qilish amaliyotini yo'lga qo'yish, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini va saylov madaniyatini oshirish, saylovlarga oid xalqaro standartlarni qonunchilikka implementatsiya qilish ishlarini davom ettirish" talab etiladi. Demak, ko'pmillatli jamiyatning hamjihatligi ularni umumiy madqad ostida birlashtirish, yo'naltirish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshishi, investitsiyalarning ko'payishi, madaniy-ma'rifiy aloqalarning rivojlanishi va boshqa bir qator sohalardagi yutuqlar jamiyatdagi barqarorlikka, g'oyaviy birlashuvga bevosita bog'liqdir.

Xulosa. Hozirgi sharoitda g'oyaviy birdamlik O'zbekiston barqarorligi va olg'a qarab rivojlanishining asosi sifatida jamiyat faoliyatining barcha sohalarida amalga oshmoqda. Bugungi uknda jag'onda ham jamiyatlarining g'oyaviy birlashuvi usutvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Chunki "insonlararo munosabatlarda o'zaro hurmat, yordam, hamkorlik, mehr, muhabbat, hamdardlik kabi ulug' qadriyatlar darz ketgan. Bugun "o'zing uchun o'l yetim", me'yordan ortiqcha "men"likka ruju qo'yish kabi salbiy holatlar kuchayib bormoqda. Ota-ona, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'chilik kabi azaliy qadriyatlarga allaqachonputur yetgan, bugun bu jarayon yanada oshib bormoqda. Ularning oqibatida insonning o'zligidan begonlashuvi kuchaymoqda. O'zining inson sifatidagi qadriyatini e'zozlash tuyg'ularidan mahrumlashib bormoqda". Shunday ekan, jamiyatda begonlashuv fenomenini kuchayib ketmasligi va insonlardagi ijtimoiy

mas'uliyatni yo'qolib ketmasligi uchun ham jamiyatda g'oyaviy birlashuvga ehtiyoj saqlanib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Куронов М. Бизни бирлаштирган ғоя. –Тошкент.: Гофур Гулом НМИУ. 2016
2. Мамадалиев Ш., Тожибоев М. Ўзбекистон Республикасининг хавфсизлигини таъминлашнинг ғоявий асослари // ЎзР ИИБ Академияси ахборотномаси, 2011, - №2.
3. Манойло А.В., Петренко А.И., Фролов Д.Б. Государственная информационная политика в условиях информационно-психологической войны. 2-нашр. М.: Горячая линия – Телеком. 2006
4. Мирошникова Е.М. Мировой опыт государственно-церковных отношений. М., 1999
5. Нации и национализм /под ред. Б.Андерсон, О. Бауэр (Пер. с англ.). - М.: “Праксис”, 2002
6. Очилдиев А. Мафкуравий таҳдидлар ва ғоявий тарбиянинг долзарб масалалари // Маънавий ва диний етуклик – давр талаби / тўпловчилар Исломов З., Шожалилов Ш. – Т. : Тошкент ислом университети, 2009.